

## TURKISTON QO'RBOSHILAR

Meyliyeva Zebiniso Mirkomilovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy Universiteti,

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514574>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr boshlarida sovet askarlariga va sovet tuzumiga qarshi kurashgan Turkistondagi haqiqiy mujohid o'g'lonlar va ularning qo'llariga qurol olib toptalgan haq huquqlari, din-u diyonatlari uchun kurashgan Turkiston qo'rboshilari tasvirlanadi. Ushbu maqolada Madaminbek va Shermuhammadbekning bosqinchi qizil askarlarga kurashish yo'lida ko'rsatgan jasoratlari, ularning bu mardliklarini hatto sovet xodimlari va askarlari ham e'tirof etganlari, ammo, harakatga bir yoqlama baho berilganligi, tarixiy hujjatlarga o'zgartirish kiritilganligi u kishilarni istiqlolchilar, mujohidlar emas "bosmachilar" deb nomunosib nom bilan ataganliklari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston qo'rboshilari, jangovar faoliyati, qismati, harakatning g'oyaviy mafkurachilari, bosmachilik harakati, istiqlolchilik harakati, muhojidlari, muvaqqat muhtor hukumati.

Yigirmanchi asrning 40-60 - yillarida Sovet Sotsiolistik Respublikalar Ittifoqi Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasini mustamlaka qilib qaram davlatga aylantirish harakati to'rt bosqichda amalga oshirilgandan so'ng, bu hududda joylashgan va bir necha asrlik buyuk tarixga ega hisoblangan Xiva, Qo'qon xonliklari hamda Buxoro amirligi asta-sekinlik bilan dastlab mustaqil va mustamlaka davlat sifatida ham yakunlandi. Bu davlatlarning aholisi (qirg'iz, tojik, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman xalqlari va h.k) o'zining butunlay o'zligini, tarixini va an'analarini unitishga majbur etildi. O'lkamizda 1867 - yil Turkiston general - gubernatorligi tuzildi va poytaxt bo'lgan Peterburgda turli qarashlar tarafdori bo'lgan oqimlar paydo bo'lib, davlat hukmronligini zabt etish maqsadida harakat qilishdi va natijada bir necha bor hokimiyat almashinuvlari sodir bo'ldi. Qanday oqim hokimiyat tepasiga kelishidan qat'iy nazar hammasining yagona maqsadi, ya'ni tabiiy boyliklar koni bo'lgan O'rta Osiyo mintaqasida o'zining mustamlakachi siyosatini va tazyiqini o'rnatish edi. Turkiston mintaqasida bu kabi oqimlardan biri hisoblangan bolsheviklar hukmronligi ostidagi Sovet rejimiga qarshi istiqlolchilikning ilk harakati 1918-yil fevral oyining oxirgi o'n kunligida Qo'qon atroflarida ko'rina boshlandi. Ularga qarshi bo'lgan harakatlarning dastlabki guruhi Qo'qon xonligi atrofidagi Bachqir qishlog'ida paydo bo'lgan Kichik Ergash (1885-1918) va Katta Ergash (1882-1921) kabi qo'rboshilarning nomlari bilan bevosita bog'liqdir.

Qo'rboshi atamasi ilk bor o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari qurol-yarog' ombori (qo'r) mutasaddisi hamda qurol-aslaha, turli yarog'lar va to'p yasash korxonalari, ya'ni qo'rxonalari boshlig'i hisoblanib, Turkiston mintaqasida "Oktabr" to'ntarishigacha bo'lgan vaqt mobaynida mahalliy politsiya boshlig'i hamda keyinchalik, Turkistonda Sovet rejimiga qarshi bo'lgan istiqloлчаilik harakati boshliqlarining unvoniga aylangan edi. Farg'ona vohasida 1918-yil yarimlariga kelib taxminan 100 ga yaqin qo'rboshilar o'zlarining guruhlar bilan qizil armiya bo'limlariga qarshi mardonavor holda kurash olib bordilar. Shunga qaramasdan, sovet hokimiyatining rasmiy hujjatlarida milliy ozodlik harakatining mohiyati va harakatlari qalbakilashtirilib, u "bosmachilik" harakati, uning qatnashchilari ya'ni qo'rboshi va ularning tarafdorlari esa "bosmachilar" tarzida noto'g'ri talqin qilindi. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining paydo bo'lishiga kelishining asosiy sababi sovet hokimiyatining o'lkada yuritgan mustamlakachilik va shovinistik siyosati edi.

Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan ilk sotsialistik tadbirlar (xususiy mulkning bekor qilinishi, majburiy va og'ir mehnatning joriy qilinishi, korxonalarining davlat ixtoyoriga o'tkazilishi va g'alla monopoliyasi, islom dinining cheklanishi, atiezm targ'iboti, masjid, bozorlarning bekitilishi, xususiy maktab va qozixonalarining yopilishi va boshqalar) hamda qizil armiya kurashchilarining bosqinchilik-u talonchiliklari istiqloлчаilik harakatiga alohida keskinlik va ko'lam baxsh etdi, bu harakat tobora keng tus olib, ommalashib rivojlanishiga olib keldi. Qo'rboshilar harakatining maqsadi va tub mohiyati Turkistonning milliy istiqboli, mustaqilligi yo'lida kurashish edi. Harakat ba'zida kuchayib, ba'zida pasayib turishi, ikkilamchi maqsadlarning o'zgarishi, guruhlarining tarkibining almashishiga qaramay o'zining maqsadi yo'lida harakatlanishni to'xtatmadi va bu harakatning tub mohiyati Turkiston mustaqilligi yo'lida kurash bo'lib qolaverdi.

Qo'rboshilar rahbarlik qilayotgan guruhlarining tarkibi Sovet hokimiyatining zulmiga jim qarab turolmagan chorikorlar, mardikor, hunarmandlar, dehqonlar va ziyolilar edi. Aholining turli xil qatlamidan bo'lgan qo'rboshilar istiqloлчаilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan. Mulkdor kishilar, din peshvolari ham sovet tuzumiga qurolli qarshilik harakatini ham istisodiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan. Samarqandlik Mulla Xoliqul: "Hududning mulkdor kishilari bo'lgan Xo'ja Eshonqul oqsoqol, Xo'ja Shodibek, Rajabbek, Abduraufboy, Ikromboy, Mulla Odil, Ne'matullabek va boshqalarni dushmanga qarshi kurash uchun 200 tilla, 200 dona 5 so'mlik oltin tanga, 50 dona etik, 200 arshin gazlama va boshqa miqdordagi mol-mulklarni to'plashga chaqiraman. Yuqoridagi sa'y-

harakatlarning hammasi Vatan mustaqilligi uchun qilingan edi. Bu yorug' dunyoda hech kim abadiy yashamaydi... Oxirgi qoningiz qolguncha kurash olib boring!" deya xalqni harakatga chorlaydi. Bu chaqiriq xatiga bir nechta nufuzli mulkdor kishilar va din peshvolari ham imzo-barmoq izlarini bosishgan. Harakatning tub mohiyati, maqsadi va mustaqillikka erishish uchun kurashayotgan xalqning irodasi, jasorati Sovet qo'mondoni vakillari ham e'tirof etishga majbur bo'ldilar. Shulardan biri Turkiston fronti qo'mondoni M.Frunze Markazga yuborgan xatida: "Bosmachilikka qarshi kurashish tamomila yangi, ayricha xususiyati bo'lgan, o'ziga xos dushman bilan kurashish demakdir", deb yozgan edi. Istiqlolchilik harakatining asosiy tarkibini mahalliy aholi ya'ni qoraqalpoq, turkman, o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlari tashkil qilgan. O'zbeklarning son jihatdan ortiq bo'lishiga qaramay, harakat saflarida yevropalik millat vakillari, hatto ruslar ham mavjud bo'lib, ular Sovet rejimiga qarshi mahalliy aholi bilan bir qatorda kurashgan. Kurashga qo'zg'algan xalq harakatini uyushtirishda qo'rboshilarning roli va xizmati katta bo'ldi. Harakatning ilk yillaridanoq Madaminbek qo'rboshi qo'l ostida 30 000 nafarga yaqin, Shermuhammadbek qo'rboshida 20 000, Katta Ergash qo'rboshida esa 8 000 nafar askar mavjud bo'lgan. Qo'rboshilar istiqolchilarning harbiy boshlig'i hisoblanib, ular xalq orasida o'z jangovarliklari bilan mashhur bo'lganlar. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Polvon; Samarqand viloyatida Ochilbek, Bahrombek va boshqalar harakatga rahbarlik qilgan. Ularning ko'pchiligi savodli va ziyoli kishilardan bo'lgan. Shakarxon, Muhiddinbekning onasi va Nodira qiz singari o'zbek xotin - qizlardan yetishib chiqqan ayol qo'rboshilar ham Turkistondagi milliy istiqol kurashi tarixiga shonli iz qoldirgan shaxslardan biri hisoblanadi.

Istiqlolchilik harakati va uning yo'lboshchilariga aloqador bo'lish, ommaviy namoyishlarda qatnashishning oxiri qamoq, surgun yoki o'lim jazosi bo'lishiga qaramay, keng miqyosdagi qatag'onlar va qizil armiya tomonidan harbiy harakatlarning kuchaytirilishi ham istiqolchilarni kurashdan qaytara olmadi. Dala qo'mondoni, qo'rboshi Ibrohimbek sovet tarixiga "bosmachilar harakati"ning eng mashhur yetakchisi sifatida kirgan. U o'tgan asrning 30-yillarida sovet hukumatiga qarshi qurolli kurash olib borgan istiqolchilardan biri bo'lgan. Ko'p yillar davomida Sovet hukumatiga qarshi kurashgan qo'rboshi taqdiri nima kechishini oldindan bilgan bo'lsa - da, tanlagan yo'lidan aslo qaytmagan. Qo'rboshilikning namoyondasi Ibrohimbek hibsga olinib, sud tomonidan o'lim jazosiga mahkum qilingan. 90 yil o'tgandan so'nggina Ibrohimbekning nomi oqlanib, "bosmachi" emas, balki ozodlik kurashchisi ekanligi e'tirof qilindi. Bu kabi "bosmachi" deb qoralangan, og'ir jazolarga

mahkum etilgan ozodlik harakatchilari bir necha mingtani tashkil etadi. Yosh avlod vakillari tarixiy hujjatlarda ismi tilga olinmagan qo'rboshilar qanchaligini to'lig'icha bilishmasa kerak. Tarixda istiqlochlilik harakati kichik ko'lamli bo'lganida edi, mustabid rejim tomonidan bu harakatga qarshi yuzlab safarbarliklar uyushtirilmagan bo'lar edi.

**Xulosa:** Tariximizga boqib quyida shunday xulosaga kela olamizki, bu xalq harakati millionlab yurtdoshlarimiz hayoti va qismatida o'chmas fojiali iz qoldirdi. O'tmishdan aniqlangan ba'zi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, u milliondan ziyod mahalliy millat vakillarining aziz umrlariga zomin bo'ldi. Minglab oilalarning o'z ona - zaminini tashlab ketib, begona yurtlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'lgan. Bunga qo'shimcha ravishda, bir qancha son - sanoqsiz odamlar ana shu milliy fojia sababli, Sobiq Ittifoqning uzoq bo'lgan chekka hududlariga surgun va badarg'a qilingan. Zeroki, ona O'zbekistonimizning mustaqillikka erishib, baxtiyor va erkin zamonlarga Musharraf bo'lishida, bugungi yosh avlod vakillarining istiqlolning oliy ne'matidan to'la bahra olishida o'sha "bosmachi" deb qoralangan ajdodlarimiz qilgan ulkan sa'y - harakatlari, to'kkan qutlug' qonlari, bergan bemisl qurbonliklarining ibрати oz-muncha emas. Ularning yorqin, porloq xotirasi hozirgi zamon minnatdor avlod fuqarolarining yodida, ongu - shuurida hamisha saqlanishi, iftixor tuyg'usi bilan eslanishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. B.Eshov. "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi". June, 2022.
2. M. Hasaniy. "Turkiston bosqini" Toshkent-"Nur"-1992 yil.
3. M. Aliboyev "XX asr boshlarida milliy ozodlik jarayonlari (Farg'ona vodiysi misolida)" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi 2016 y.
4. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. "Sharq" nashriyoti: 195 bet.
5. Q.Rajabov, A.Zamonov O'zbekiston tarixi: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik.1-nashri.-T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.-144 b.
6. Rajabov Q. Farg'ona vodiysida istiqlochlilik harakati:mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924) T.f.n,ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya-T: 1994,34 bet.